



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



CHAQIRIQGACHA BULGAN YOSHLARNI INTELLEKTUAL JIXATDAN VATANGA SODIQLIK TUYGUSINI SHAKILLANTIRISH METODOLOGIYASI.

Axmadkulov Umidjon Maxamadovich

Qoqon davlat pedagogika unситuti 1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada asosan chaqiriq Yoshida bolgan yoshlarni har tamonlama intellektual va vatanga soadoqat ruxida tarbiyalashda soz borgan*

Kalit so'zlar: *yuksak, maqsad, Harakatlar strategiyasi, qo'shimcha chora-tadbirlarni, Davlat dasturlari, ma'naviy etuk.*

KIRSH. Ma'lumki, "XXI asr yuksak intellektual asr", deb nomlanmoqda. Bu jamiyatning deyarli barcha jabhalari negizida ro'yobga chiqmoqda. Bunday yuksalishning harakatlantiruvchi kuchini asosan intellektual va innovasion rivojlangan avlod tashkil etadi. Bu boradagi yuksalish tabiiyki, ta'lim tizimi zimmasiga tushadi. Bu ta'lim-tarbiya jarayonida ham muhim islohotlarni amalga oshirishni talab etadi. Shu sababli, yoshlarni intellektual salohiyatli qilib tarbiyalash, ulardagi ma'naviy immunitetni qaror toptirish davlatimiz siyosati darajasiga ko'tarildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29-aprel №-PF-5712 "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ni tasdiqlash to'g'risida Farmoni maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, hamda "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida ham intellektual avlodni shakllantirish va ularning qo'llab-quvvatlash bo'yicha muhim chora-tadbirlar qayd etilgan va ularning hayotga tadbiiq etish, bo'yicha Davlat dasturlari qabul qilingan Shu bilan birga, iqtidorli yoshlar bilan ishlashning yagona va samarali tizimini yaratish, yosh avlodning iste'dodi va salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun bunday yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ilg'or xorijiy tajribalar talablari asosida darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalarni, shu jumladan elektron shaklda nashr etish, shuningdek, xalqaro maydonda mamlakatimiz manfaatlarini professional va yuqori darajada munosib ifoda eta oladigan, talab yuqori bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashni ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligi ta'kidlandi. Iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash, o'qitish va tarbiyalash, yosh iste'dodlarni yanada qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish shuningdek, umumta'lim muassasalari faoliyatini boshqarish va tashkil etishning maxsus tizimini yaratish maqsadida: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil qilishda alohida agentlik tashkil qilinganligi innovasion yondashuvlar nazari ostida intellektual va shaffof kasb egalari qilib etishtirish maqsadida ta'limning



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



tarbiyalanganlik darajasidagi masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Har bir yoshning siyosiy ongini oshirish, ijtimoiy faolligini ta'minlash va jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga erishish, ma'naviy etuk intellektual salohiyatli barkamol avlodni shakllantirish ta'limtarbiya sohasining eng muhim yo'nalishi sifatida belgilangan. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev Miromonovich o'z nutqlarida ta'kidlaganlaridek, yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha uzluksiz olib boriladigan ishlar biz uchun dolzarb ahamiyatga egadir". Darhaqiqat, yoshlarni zamonaviy fan-texnikaning, umuman, ilm-fan yutuqlaridan bahramand qilmasdan turib, ularga yuqori malakali munaxassislar bo'lib etishishiga zamin yarata olmaymiz. Jamiyatimizda demokratik tamoyillarga asoslangan boshqaruvni tashkil etish, ayniqsa endigina shakllanib, o'nib-o'sib kelayotgan yoshlarni milliy urf-odatlarimizga, an'ana va tarixiy merosimizga sodiqlik ruhida tarbiyalash, umumbashariy insonparvarlik aqidalariga xos insoniy fazilatlarni shakllantirish jamiyatning bugungi kungi hayotida bosh va eng dolzarb masalaga aylanmoqda. Mamlakatda bunday talablarni amalga oshirish uchun aqlli, tafakkuri keng kelajak avlodlari kerak bo'ladi. Ular iste'dodli yoshlarning salohiyati, intilishlari va aql-idrokiga bog'liqdir. Yoshlarni barkamol shaxs sifatida etishtirish hozirgi davrda muhim ahamiyat kasb etuvchi eng dolzarb vazifalardan biridir. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar – innovasion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta'limning samaradorligini oshirishga bo'lgan e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi ham har tomonlama rivojlangan, zamonaviy bilimlarga ega barkamol insonni "Milliy armiyamiz – tinch, osuda va farovon hayotimizning mustahkam kafolati", Xalq so'zi gazetasi, 2017 yil 14 yanvar, tarbiyalashdan iboratdir. Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Islohat-bu o'zgarish, yangilanish degani"dir. Shuni inobatga olgan holda yangilanish, o'zgarish qayerda kuzatiladi bevosita o'quv jarayonida kuzatiladi. Ta'lim tizimidagi barcha strategik maqsadlar belgilanganligi va unda uchta tamoilga asoslanib faoliyat olib boriladi. Bular ta'lim tizimida shaffoflik, ta'lim tizimida adolat, ta'lim tizimida sifat. Jahon tajribalarini amaliyotda hozirgi ayni vaqtda yoshlarning bilim olishida ko'rishimiz "PIZA, TIMES" halqaro dasturlar asosida ta'limdagi tub islohatlarni joriy etilishi bilan birgalikda intellektual yoshlarni tanlash va ularning faolligini oshirish maqsadida "MASTER CLASS, onlayn va vebinar" darslari tashkil qilinmoqda. Fan o'qituvchisining faoliyatiga beriladigan baho darajasini ham darsning sifati belgilaydi. Respublikada mavjud oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining ta'lim mazmuni muayyan ilmiy asoslarga tayangan holda tanlanadi. Shunga ko'ra, ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish muhimdir. Barcha mutaxassisliklar bo'yicha yangi o'quv rejalari, davlat ta'lim standartlari asosida o'quv dasturlari ishlab chiqildi, o'qiladigan ma'ruzalar ilmiy nazariy jihatdan yangilandi. Fundamental bilimlarni o'rgatishga bo'lgan e'tibor



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



kuchaytirildi. Hozirda pedagog ta'lim tizimida yoshlarni pedagogik malaka va ko'nikmalarini oshirish bilan chegaralanmay, ularga zaruriy ilm-fan va texnika-texnologiyalarning eng so'ngi yutuqlariga asoslangan qo'shimcha bilimlarni o'zlashtirishlari uchun imkoniyat yaratib berishlari lozim. Bilish faoliyatini o'zlashtirish to'la ma'noda tafakkurning rivojlanganligini ifodalamaydi. U ilmiy dunyoqarashning poydevoridagina shakllantiradi. Shu sababli, intellektual yoshlarning bilish ko'nikmalarini o'zaro aloqadorlikda tarkib toptirish, olgan nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lab, umumlashtirishga o'rgatish lozimdir. Yoshlarning intellektual salohiyatli va mafkuraviy e'tiqodini shakllantirishda ilmiy va ma'naviy qadriyatlar, buyuk mutafakkirlar ilmiy merosi, falsafiy qarashlarining muhim jihatlarini, bugungi kun zamonaviy ilm-fan va texnika taraqqiyotida erishilayotgan yutuqlarni o'zlashtirishga yo'naltirish, shuningdek, mamlakatda yoshlar intellektual salohiyatini namoyon etayotgan "El-yurt umidi" jamg'armasi, "Zulfiya" va "Nihol" mukofotlari, fan olimpiadalari, tanlovlar, "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universiada" sport musobaqalariga e'tibor qaratilganligi muhim ahamiyatga ega. Mahallalarda yashayotgan hamda korxonalar, tashkilotlarda mehnat qilayotgan, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida tahsil olayotgan yoshlarning "Yoshlar ittifoqi" tashkiloti faoliyatida ishtirok etishlari ularning turmush tarzini o'zgartirib yuboradi. Turli tadbirlarda qatnashish, o'z imkoniyatlarini namoyon qilish, ma'ruzalar tinglash, muloqotlar va turli xil suhbatlarda ishtirok etish muayyan bilimlarning kengayishiga, mustaqil fikr yuritishga mustahkam zamin yaratadi. Fan asoslarini mukammal o'zlashtirgan holda egallangan bilimlarga aqliy jihatdan yondashib o'zining mustaqil fikrini bildira olish ko'nikmasini qaror toptirish muhimdir. Bu jarayonda oliy o'quv yurtlarida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar ishtirok etib, talabalarni "Yoshlar ittifoqi" tashkiloti orqali amalga oshiriladi. Pedagoglar yoshlar bilan ishlash davomida talabalarga o'z faoliyatlarini mustaqil boshqarish va bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatlarini o'rgatib borishlari lozim. Amaliy va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar, suhbatlarda yoshlarni mustaqil ishlash, fikr yuritish, mulohaza qilishga o'rgatish talab etiladi. Bu borada "Intellektual avlod-Vatan taraqqiyoti tayanchi", "Intellektual asrning faol ishtirokchisi" kabi tadbirlarni uyushtirish ijobiy pedagogik samaralarni beradi. Bugungi kunda muammoli ma'ruzalar o'qish asosida mashg'ulotlarni tashkil etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ma'ruzaning bu shakli, yoshlarning bilimga bo'lgan ishtiyoqlarini oshirish, mustaqil ravishda qo'yilgan savollarga ijodiy yondashish, qiyin masalalar echimini maqsadga muvofiq topish, mantiqiy fikrlash ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi. Ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish ilmiy muammo sifatida maxsus tadqiqotlar olib borishni ko'zda tutadi. birinchidan, ma'lum sabablarga ko'ra jahon hamjamiyati taraqqiyotidan ortda qolib ketgan jamiyatimiz taraqqiy etgan



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun aholi ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida eng ilg'or pedagogik tadbirlardan foydalanishga; ikkinchidan, an'anaviy o'qitish tizimi yozma va og'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rish tufayli "Axborotli o'qitish" sifatida tavsiflanib, o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolmasligiga; uchinchidan, fan-texnika taraqqiyotining jadal rivojlanayotganligi natijada axborotlarning keskin ko'payib borayotganligi va ularni yoshlarga bildirish uchun vaqtning chegaralanganligiga; to'rtinchidan, kishilik jamiyati o'z tarakkiyotining shu kundagi bosqichida nazariy va empirik bilimlarga asoslangan tafakkurdan tobora foydali natijaga ega bo'lgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkurga o'tib borayotganligiga; beshinchidan, yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg'or bilim berish usuli hisoblangan ob'ektiv borliqqa zamonaviy yondashuv tamoyillaridan foydalanishga imkon beradi. Yoshlarning mustaqil fikrlash faoliyatini mashg'ulotdan-mashg'ulotga rivojlantirib borish, mantiqiy fikr yuritishga odatlantirish muammolarni echishda mavjud malakalariga suyanishga o'rgatish, egallangan mavjud va yangi hosil bo'lgan bilimlarini uyg'unlashtira olish ko'nikmasini tarkib toptirish, ta'limning turli metod va usullaridan foydalanishga imkon yaratish kabilar. Fan asoslarini o'qitish tajribasidan ayonki, aniq dalillar, nazariy masalalarni misollar bilan tushuntirish, ta'limning turli vositalaridan foydalanish yoshlarning nafaqat berilgan bilimlarni chuqur o'zlashtirishlari, balki dunyoqarashlarini ham shakllantirishga olib keladi. Bundan tashqari ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar nafaqat sezish, idrok etish, anglash va ta'sir etishga yo'naltiriladi, shu bilan birga pedagogning shaxsiy tajriba bilan ma'ruzani boyitish imkoniyati ham yaratiladi. Bundan shu narsa ma'lum bo'ldiki, yoshlar harakati faoliyatida oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida ular ongida milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish, avvalo talabalarning voqea va hodisalarga qiziqishlaridan tortib, guruhdagi faoliyatlari, o'quv va jamoat ishlaridagi ishtiroki, hattoki yotoqxonadagi qoidalarga amal qilishlarigacha bo'lgan zarur hayotiy vazifalar aniq belgilab olinadi. Yoshlar uchun umumiy o'rta ta'lim, akademik lisey va oliy o'quv yurtlarida barcha turdagi munosabat va muloqotlarni shunday tashkil etish zarurki, ular o'quv muassasasini tamomlagach bu ko'nikma va malakalardan barcha sohalarda foydalana olsin. Bu davrning muhim xususiyati ularda ijtimoiy-g'oyaviy munosabatlarning etilishi va jadal kamol topib borishi bilan ajralib turadi. Bu holat yoshlarda o'z-o'zini boshqarish, mas'uliyat, iymon-e'tiqod va sog'lom dunyoqarashning shakllanishiga bo'lgan intilishlarida namoyon bo'ladi. Yoshlar jamiyat hayotida ro'y berayotgan ijtimoiy munosabatlar qonuniyatlarini bilish, bu jarayonlar mazmunini tahlil qilish va voqelikda bevosita ishtirok etishga intiladilar. O'z g'oyaviy qarashlarini puxta va mukammal ifodalash, himoya qila olish hamda dalillash kabi xususiyatlarni o'zlarida to'liq tarkib toptiradilar. Bunga misol Yoshlarda shaxsiy faoliyatni tashkil





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



etishda mustaqillikka intilish holati kuzatiladi, bu esa ijtimoiy munosabatlar mazmunini o'zlashtirishda faollik ko'rsatishga yo'naltirishni taqozo etadi. Yoshlarda o'z faoliyatlarini mustaqil tashkil etish, o'zini-o'zi boshqarish, g'oyaviy qarashlar kabi hayotiy zarur masalalarni o'rgatishda ularning o'zini-o'zi kamolga etkazishga intilishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlik davrining o'ziga xos bo'lgan muhim xususiyatlaridan yana biri, ular o'zlari uchun ideal tanlashga intilishlarida namoyon bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda namuna bo'la oladigan kishilarga intiladilar, o'z fazilatlarini ularga taqqoslaydilar va o'z ustida ko'proq ishlashga harakat qiladilar. Bu xususiyatdan unumli foydalangan holda tarixiy va zamonaviy qahramonlar hayoti, faoliyati va intilishlariga oid ma'lumotlarni berishga qaratilgan ta'lim jarayonini tashkil etish zarur. Yoshlarga xos bo'lgan yana bir muhim xususiyat, o'rtoqlik, do'stlik, ulfatchilik va muhabbatdir². Bu his-tuyg'ular asosida jamoa bo'lib birlashish, ya'ni o'zaro hamjihatlik kabi fazilatlar shakllanadi. Bu holat yoshlardagi maqsad sari intilish, birlashish, nafaqat o'zi uchun balki boshqa insonlar manfaatlari, orzu-umidlari uchun kurashish asosida odamiylik, insonparvarlik kabi his-tuyg'ularni shakllantirishga zamin yaratadi. Yoshlar ongining shakllanishida jamoaning o'rni katta. O'z guruhi, mahallasi, korxonasi, turli xil tadbirlar, bayram va ijodiy yig'inlar ularning e'tiborini jalb qiladi. Bu esa ularni jamoat ishlariga jalb etadi. Yoshlik inson hayotidagi eng yorqin, jo'shqin va g'oyat mas'uliyatli davr hisoblanadi. Ijtimoiy hayotda bo'layotgan barcha voqea va hodisalar yoshlarni shu jamiyatning fuqarosi ekanligini his etishga undaydi. Shu tarzda ularda g'oyaviy e'tiqod tarkib topadi, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi histuyg'ular mustahkamlanadi, milliy va umuminsoniy axloq me'yorlariga muvofiq xulqiy malaka va odatlar shakllanadi. Yoshlarning barcha intilishlari ma'lum maqsadlarga qaratilgan bo'ladi. Ularning ko'pchiligi Vatan, xalq, jamiyat, insoniyatga xizmat qilishni hayotining maqsadi, deb biladi³. Yoshlarning yana bir muhim xususiyati ijtimoiy foydali mehnatga intilishda namoyon bo'ladi. Shu xususiyatdan kelib chiqqan holda ishlab chiqarishga asoslangan faoliyatni yo'lga qo'yish ularning mehnatga bo'lgan mehr-muhabbatlarini orttiradi. O'z mehnatini qadrlash, boqimandalik illatidan qutulishga yordam beradi. Mehnat jarayonida yoshlar o'zlarini tarbiyalaydilar, o'z ustilarida mustaqil ishlaydilar, muayyan sifat va fazilatlarini egallaydilar, irodalarini mustahkamlaydilar. Husniddinov Z. Islom va mazhablar. Voizga yordam: ma'ruza matni. Yoshlarning jismoniy, ma'naviy va ideal aktual rivojlanishlarida bir qadar umumiylik bo'lsada, biroq ularning xislat, xarakter, mijoz, irodaviy sifat, qiziqishlari turlicha bo'ladi. Yoshlarning voqea va hodisalarga bo'lgan munosabatlari, orzu umidlari, dunyoqarashlari va e'tiqodlari ham bir xil bo'lmaydi. Muayyan bir yosh davrida qo'llaniladigan ta'lim-tarbiya metodlarini boshqa bir yoshdagi talabalarni tarbiyalashda qo'llash kutilgan samarani bermasligi mumkin. Shuning uchun mafkuraviy ta'lim-tarbiya jarayonida har bir yoshning xarakter xususiyatlarini





o'rganish lozim. Bu holat ularning qiziqish va qobiliyatlari, g'oyaviy e'tiqodi, zaif va kuchli tomonlarini baholashga imkon berishiga qaratiladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Axatov, S. A., & Akhmatkulov, U. M. (2021). Basics of pre-prescription military training subject. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 441-447.
2. Saidov, I. M., Axmatqulov, U. M., & Abdullayev, B. T. (2020). OMMAVIY VA INTERNET AXBOROT RESURSLARINING YOSHLARDA VATANGA SODIQLIK TUYG'ULARINI SHAKLLANTIRISHDAGI BOG'LIQLIKLAR. *Academic research in educational sciences*, (4), 199-203.
3. Собиров, О. Ф., & Ахмадкулов, У. М. (2019). СОВРЕМЕННЫЕ ИНФОРМАЦИОННЫЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ. *Мировая наука*, (11), 306-308.
4. Ахматкулов, У. М. (2022). ЁШЛАРНИ РУҲИЙ ВА ЖИСМОНАН ЕТУКЛИК ДАРАЖАСИНИ ШАКЛЛАНИШИГА ИЖТИМОЙ МУҲИТ ВА ТАРБИЯ УСЛУБЛАРИНИ ТАЪМИНЛАШ. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(23), 161-164.
5. Махамаджонович, А. У. (2022). IJTIMOYIY HOLAT VA TA'LIM-TARBIYANING VATANPARVARLIK XISSIYOTLARINI SHAKLLANISHIDAGI ANAMIYATINI BAHOLASH. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(23), 171-177.
6. Makhamadjonovich, A. U., Shukorovich, I. J., & Bahodirovich, Y. S. (2022). THE METHOD OF FORMING A SENSE OF LOYALTY TO THE HOMELAND IN YOUNG PEOPLE BEFORE THE DRAFT. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(23), 184-189.
7. Ахматкулов, У., & Хамдамова, М. (2022). ЁШЛАРНИ VATANPARVARLIK РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ-ФУҚАРОЛИК ПОЗИЦИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АСОСИ СИФАТИДА. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(20), 115-118.